

TARBIYASI QIYIN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA XALQARO TADQIQOTLARNING AHAMIYATI

Jabborov Maqsud Mashrabovich

Jizzax viloyati pedagogik mahorat markazi

Annotatsiya: Mazkur maqola komil insonlarni voyaga yetkazishda, tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlashda tarbiyalash jarayoni, o'quvchilarga verbal ta'sir ko'ratish kabi pedagogik jihatlarni amalga oshirish metodikasi haqida yozilgan.

Аннотация: В данной статье написано о педагогическом процессе воспитания совершенных людей, процессе работы с учащимися с трудным воспитанием, а также о методике реализации педагогического аспекта такого аспекта, как речевое воздействие на учащихся.

Annotation: This article discusses the pedagogical process of nurturing exemplary individuals, addressing students with challenging backgrounds, and implementing methodologies involving verbal influence on schoolchildren.

Tarbiya-muayyan, aniq maqsadga va har tomonlama ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni tarbiyalash, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan hissiyotlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashning o'zaro munosabatlari to'g'risida pedagogika fanida turli yondashuvlar mavjud. Ko'pchilik olimlar tarbiya va o'zini o'zi tarbiyalashni bir jarayonning ikki jihati deb talqin qilishadi. Boshqa guruh olimlar esa, shaxsning shakllanishida asosiy rolni tarbiya o'ynaydi, o'zini o'zi tarbiyalash esa yordamchi vositadir, deyishadi. Uchinchi guruh olimlar esa, shaxs shakllanishida o'zini o'zi tarbiyalash asosiy o'rin tutadi, deb talqin qilishadi. Masalan, "Педагогическая антропология" kitobining muallif-tuzuvchisi B. Bim-Bad shaxsning shakllanishi faqat o'zini o'zi tarbiyalash orqali amalga oshirilishi haqida shunday yozadi: "Har qanday tarbiya o'zini o'zi tarbiyalashga

yo‘naltirilgan bo‘ladi. Tarbiya jarayonida o‘quvchining faol ishtirokini ta‘minlamay turib, uni hech narsaga o‘rgatib bo‘lmaydi”. Boshqa bir o‘rinda B.Bim-Bad shunday deydi: “Antropologik madaniyat insonni uning o‘z faoliyati mahsuli sifatida idrok qilishdir”.¹ Mamlakatimiz pedagog-olimlari ham o‘zini o‘zi tarbiyalash to‘g‘risida tadqiqotlar olib borishgan va muayyan xulosalarga kelishgan. Masalan, Z.K.Ismoilova bu haqda shunday fikr bildiradi: “... kishi o‘zini o‘zi tarbiyalashga intilmas ekan, boshqalar unga faqat tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatsa-da, uni tarbiyalay olmaydi.”² Mazkur o‘rinda tarbiya va o‘zini o‘zi tarbiyalashning o‘zaro munosabatlari to‘g‘risidagi munozaralarga kirishib ketmay shuni ta‘kidlash mumkinki, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar tarbiyaga ham, o‘zini o‘zi tarbiyalashga ham jiddiy ta‘sir o‘tkazadi.

Tarbiyasi qiyin o‘quvchilar bilan ishlashda pedagog va mutaxassis-tashkilotchi o‘quvchilar o‘zini o‘zi tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishlari uchun ularga istiqbolni aniq ko‘ra bilishlarida, unga erishish yo‘llarini izlab topishda, yuksak ideallarga ega bo‘lishlarida yordam berishi va imkoniyat yaratishi lozim.

O‘quvchi-yoshlarning o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayoniga jalb etilishlari uchun muhim omillardan biri ularning o‘zini o‘zi anglashidir. Maktab davrining dastlabki bosqichidagi o‘quvchilarda o‘z sifatlarini va xatti-harakatlarini tahlil qilish va tanqidiy baholay bilish qobiliyatining shakllanishi o‘zini o‘zi tarbiyalash samaradorligini oshirishda yana bir jiddiy bosqichdir. O‘quvchi-yoshlarning har biri o‘zini axloqiy jihatdan takomillashtirishda yuqori natijalarga erishishi mumkin, biroq buning uchun ta‘lim va tarbiya jarayoni shunga mos tarzda tashkil etilishi lozim. Mashg‘ulotlar davomida va darsdan tashqari paytlarda turli madaniy-ma‘rifiy tadbirlardan keng va unumli foydalanish o‘quvchilarda yuksak axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga barakali zamin yaratadi. Axloqiy qadriyatlar va ideallar yoshlarni o‘zini o‘zi tarbiyalashga undaydi. Ular o‘sha qadriyatlar va ideallarga munosib bo‘lish uchun intiladilar.

¹ Б.Бим-Бад. Педагогическая антропология. - Москва : Издательство Юрайт, 2023. – 46, 48 с.

² Z.K.Ismoilova. Pedagogika. - Toshkent: Intellekt, 2021 y. -B 64.

O'rganilgan tadqiqot natijalariga ko'ra pedagog oldida turgan ko'plab vazifalar orasida munosabat bilan bog'liq masalalar eng murakkab masala bo'lib qolayotganligini ko'rsatadi. Ular pedagogning kommunikativlik malakalari yuksak darajada bo'lishini talab etadi.

V.A.Suxomlinskiyning tadqiqotlarida pedagogning o'quvchilarni tushunishda rejasi va uning uchun xos bo'lgan pedagogik ta'sir ko'rsatish vositalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar o'rganiladi. Pedagogning o'quvchilarni tushunish darajasi pedagogik faoliyat darajasi bilan solishtiradi. Ko'rinib turibdiki faoliyati yuksak darajali o'qituvchilarda ta'sir ko'rsatish vositalari tashkiliy xususiyatdagi omillar birinchi o'rinda turadi. Faoliyati past darajadagi o'qituvchilarda esa tartib-intizom kuchliligi bilan ajralib turadi. O'quvchilar faoliyatini tashkil etishga yetarli e'tibor bo'lmasa, oqibatda intizomni saqlashga ko'p kuch va vaqt sarflashga to'g'ri keladi. Aynan bunday vaziyatlarda tashkiliy va uyushqoqlik yo'lga qo'yilgan jarayonda ro'y beradi.³

Pedagogning o'quvchilarga verbal ta'sir ko'rsatish turlari ham o'qituvchining faoliyati darajasi va uning o'quvchisini tushunish qobiliyati bilan bog'liqligi aniqlanadi. Faoliyat darajasi yuqori va past bo'lgan o'qituvchilar verbal ta'sir ko'rsatishlari tizimi miqdor bilangina emas, balki sifat bilan farq qiladi.

Tadqiqotlarga ko'ra o'qituvchilar ko'proq quyidagi so'z bilan ta'sir ko'rsatish usullaridan foydalanishlarini aniqladi. (ahamiyatiga qarab): ko'rsatma berish, ovozni balandligi, familiyasini aytish, rag'batlantirish, xazil-mutoyba, faoliyati past darajali o'qituvchilar ko'pincha baland ovoz bilan gapiradilar yoki o'quvchining ismi sharifini aytib murojaat etadilar, lekin xazillashish va rag'batlantirishni kam qo'llaydilar. Ular yo'l ko'rsatishdan yanada kamroq foydalanadilar, chunki bunday pedagoglar o'quvchilarni o'quv faoliyatiga ongli munosabatni tarkib toptirishdan ko'ra ko'proq tartib-intizomga chaqiradilar.

Shunday qilib o'qituvchi mashg'ulotlar paytida o'quvchilardan ikki marotaba ko'p gapiradi. Bu ma'lumotlar boshqa tadqiqotchilar tomonidan olingan ma'lumotlar bilan ham tasdiqlanadi.

³ В.А.Сухомлинский. Как воспитать настоящего человека. – К: Удмуртия, 1980. – 119 с.

Rus olimi Ye. I. Aleshkinning fikricha konfliktli vaziyat bilan ziddiyatli vaziyatni birlashtirib, umumlashtirgan holda e'tirof etish mumkin emas.⁴ Chunki ikkala atamaning ham orasida farq bor.

Konfliktli vaziyat deganda – ikki tomon vakillarining fikrlari, maqsadlari, ehtiyojlari, xullas gap-so'zlari to'g'ri kelmay qolsagina yuzaga keladi.

Ziddiyatli vaziyat bo'lsa, faqatgina bir yoq tomon vakiliga uning ichki kechinmasiga, o'y-hayollariga, fikrlari hamda xissiyotlariga bog'liq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan ikki olim psixologlarining fikrlarini biz inkor eta olmaymiz. Chunki ikki olim ham bir nimaga asoslangan holda bizga o'z nazariyalarini yetkazib berishgan.

Pedagogik yoki sinfdagi konfliktning kelib chiqish sabablari quyidagilar:

1. Tengdoshlari va o'qtuvchilari bilan kelishmovchilik kelib chiqishiga quyidagi toifadagi o'quvchilar (o'quvchilar) sabab bo'ladi:
2. Oilasi notinch, ota-onasi janjalkash o'quvchilar ko'pincha sinfda jizzakilik qilib, arzimagan sabablar tufayli ham tengqurlari bilan nizolashadi, ularni odatda sinfdoshlari va o'qtuvchilari "tarbiyasi og'ir" o'quvchilar deb ta'riflaydilar.
3. Kamol topishda nuqsoni bo'lgan – infantil o'quvchilarda, o'ta erka tarbiyalangan o'quvchi va yoshlarda bilimlar bilan tizimli shug'illanish uchun iroda yetishmaydi. Hissiy qo'zg'alish va tormozlanish jarayoni kamchiliklar ham bilimlarni egallash va sinf jamoasiga kirishib ketishga to'sqinlik qiladi.
4. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan va aqli zaif o'quvchilar va yoshlar ham darslar va berilayotgan bilimlarni o'zlashtirishi qiyinlashgani va murakkablashib borishi natijasida bilimlarning mazmuni va ma'nosini egallashga qiynaladilar, bu holat ularda janjalkashlikka mayillikni kuchaytiradi. Chunki dars ular uchun mashaqqatli – ish, ular ilojini topsa darsga kelmaydi, kirmaydi. Janjal qiladi.
5. Iqtidorli o'quvchilar. Ular darsda berilayotgan bilimlar darajasidan qoniqmaydi. Zerikadi. Ko'pincha sinfdan ajralib qoladi. O'qtuvchi bilan kelisha olmaydi. Shu sababli o'zlashtirishdan orqada qolatgan tengdoshlari ham, uning

⁴ Г.С.Бережная. Концепция подготовки педагога-психолога к работе с конфликтами. // Вестник Балтийского федерального университета им. И.Канта. Серия: Филология, педагогика, психология.2006.

talabi va istagi darajasida dars berolmayotgan pedagog bilan ham konfliktga kirishga moyil bo'lib qoladi.

6. Doimo hammadan norozi, atrofdagilarga muholifatda bo'lganlar. Bu o'quvchilar ota-onasiga, o'qtuvchilariga va boshqa kattalarga salbiy munosabatda bo'ladilar. Ularning gapiga ishonmaydilar. Mavjud tartib intizomga bo'ysinishni istashmaydi. Qastdan darsdan qochib ketadi, ota – onasiga azob berish uchun o'g'rilik qiladi, arzimagan narsalarga janjal ko'taradi.

7. Birovlarga taqlid natijasida yuzaga keladigan konfliktlar. O'quvchilar yoki yoshlar o'zidan katta kishilarga ba'zan kino aktyorlarga va boshqa sevimli qaxramonlarga taqlid qilib sinfdagi tartib intizomga, ahloq normalarga rioya qilishni istamaydilar.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinadiki, pedagogik jamoalarda yuzaga keladigan nizolalning aksariyat qismi shaxslararo munosabatlar tizimi bilan bog'liq bo'ladi.

Shunday qilib, uzluksiz ta'lim tizimida mazkur masalaga alohida e'tibor qaratish muhim ijtimoiy-pedagogik muammolardan biri sanaladi. Tarbiyasi qiyin o'quvchilar bilan ishlash talablarga muvofiq maqsadli dasturlar asosida tashkil etilishi amaliy harakatlarning tizimligi, izchilligi va uzluksizligini ta'minlash bilan birga kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Adabiyotlar:

1. I.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". - Toshkent: Ma'naviyat, 2008 y. -B 134.
2. Б.Бим-Бад. Педагогическая антропология. - Москва : Издательство Юрайт, 2023. – 46, 48 с.
3. Z.K.Ismoilova. Pedagogika. - Toshkent: Intellect, 2021 y. -B 64.
4. В.А.Сухомлинский. Как воспитать натеящего человека. – К: Удмуртия, 1980. – 119 с.